

Yondosh mavzu:
bizning sinf.

To'plam, qismto'plam,
to'plamlar elementlari.



1. Rasmdagi barcha bolalar to'plamini sanab o'ting. Barcha qizlar to'plamini sanab o'ting. Barcha o'g'il bolalar to'plamini sanab o'ting.



Agar B to'plamning barcha elementlari A to'plamning qismi bo'lsa, B to'plam A to'plamning **qismto'plami** deb ataladi.

$A = \{0, 1, 2, 3, 4, 5, 6\}$, $B = \{0, 1, 2\}$.

B – A to'plamning qismto'plami.

Bu \subset belgi yordamida quyidagicha yoziladi: $B \subset A$.

O'qilishi:



B to'plam A to'plamning ichida yotadi;

A to'plam B to'plamni o'z ichiga oladi;

B to'plam A to'plamning qismto'plami bo'ladi.



2. Qaysi to'plam boshqasining qismto'plami bo'ladi? Ushbu to'plamlarning elementlarini va ularning qismto'plamlarini yozing.



132. Qismto'plam



3. Chapda keltirilgan har bir qismto'plam uchun o'ng tomonda uning o'z to'plamini tanlang.

- a) doiralar to'plami;
- b) kvadratlar to'plami;
- d) beshburchaklar to'plami;
- e) uch xonali yaxlit sonlar to'plami;
- f) {2, 4, 8, 16} to'plam;
- g) {18, 27, 36, 45, 54, 63} to'plam.

- a) 32 sonning bo'luvchilari to'plami;
- b) yassi shakllar to'plami;
- d) 9 ga karrali sonlar to'plami;
- e) ko'pburchaklar to'plami;
- f) 1000 gacha bo'lgan sonlar to'plami;
- g) to'rtburchaklar to'plami.



4. Namunadan foydalanib, ko'rsatilgan ikkinchi to'plam birinchisiga kirish yoki kirmasligini yozing.

Namuna:

A – yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilar to'plami,

B – a'lochi o'quvchilar to'plami.

$B \not\subset A$ – *B* to'plam *A* to'plamga kirmaydi.

- a) *X* – sudralib yuruvchilar to'plami,
Y – ilonlar to'plami;
- b) *M* – yassi shakllar to'plami,
N – ko'pburchaklar to'plami;
- d) *C* – juft sonlar to'plami,
D – yaxlit sonlar to'plami.



5. Masalani yeching va unga teskari masalalar tuzing.

Sinfimizdagi o'g'il bolalar 3 tadan, qizlar esa 4 tadan yulduzcha olishdi. Sinfimiz o'quvchilari jami nechta yulduzcha olishdi?

O'g'il va qiz bolalar sonini diagramma yordamida topish mumkin.





6. Izlanish.

- Perimetri 8 cm bo'lgan barcha mumkin bo'lgan to'g'ri to'rtburchaklar to'plamini tuzing. Bu to'g'ri to'rtburchaklarning yuzini toping. Qaysi to'g'ri to'rtburchakning yuzi eng katta?
- Bir xil perimetrga ega bo'lgan barcha to'g'ri to'rtburchaklardan qaysi birining yuzi eng katta ekani haqidagi gipotezani (o'z taxminingizni) ayting.
- Perimetri 12 cm bo'lgan barcha mumkin bo'lgan to'g'ri to'rtburchaklarni yasash bilan o'z taxminingizni tekshirib ko'ring.



7. Tengsizlikning o'ng tomonini hisoblang. Koordinata nurini yasang. Koordinata nurida ushbu tengsizlik to'g'ri bo'ladigan barcha nuqtalarni belgilang:

$$x \leq 456 \cdot 70 : 8 - 3 \cdot (1724 - 291 - 107)$$



8. O'qituvchi sinfdagi o'quvchilarni uchburchak shaklida joylashtirdi: birinchi qatorga bir nafar, ikkinchi qatorga ikki nafar, uchinchi qatorga uch nafar o'quvchi va hokazo. Keyin u o'quvchilarni kvadrat shaklida qayta joylashtirdi. Agar sinfdagi o'quvchilar soni 50 nafardan ortiq emasligi ma'lum bo'lsa, sinfda necha nafar o'quvchi bor?



9. Amallar tartibiga rioya qilgan holda hisoblang.

$$(23\,118 + 16\,339) : 11 - 8 \cdot 150$$

$$4\,800 : 80 + 7\,600 : (4\,385 - 2\,485)$$



10. A – 15 dan 49 gacha bo'lgan sonlar to'plami. Bu to'plamdan quyidagilarni ko'chirib yozing:

- B – yaxlit sonlar qismto'plamini;
- C – juft sonlar qismto'plamini;
- D – 3 raqamini o'z ichiga olgan sonlar qismto'plamini;
- E – 5 ga karrali sonlar qismto'plamini.

B to'plam C to'plamga kiradimi?